

TOPONIMLAR – JOY NOMLARI

Axmatova Intizora Hasan qizi*Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya: Bugungi kunda tilshunoslik jadal sur'atlarda rivojlanib, onomastika faniga ham o'z ta'sirini sezilarli darajada ko'rsatmoqda. Bu fanning bo'limlaridan biri toponimlar ham rivojlanib, lug'atlarda, badiiy asarlarda o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Ushbu kichik tadqiqotda onomastikaning til tizimidagi o'rni, o'rganilishiga oid nazariy qarashlar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: onomastika, toponimika, oykonimiya, gidronimiya, kosmonimiya, oronimiya, areal, mikrotoponimiya, makrotoponimiya, onomastik konversiya.

Abstract: Today, linguistics is developing rapidly and is significantly influencing the science of onomastics. One of the branches of this science, toponyms, is also developing and retaining its value in dictionaries and works of art. This small study reflects the theoretical views on the role of onomastics in the language system and its study.

Keywords: onomastics, toponymy, oikonomy, hydronymy, cosmonymy, oronymy, areal, microtoponymy, macrotoponymy, onomastic conversion.

Аннотация: Сегодня лингвистика стремительно развивается и оказывает значительное влияние на науку ономастики. Одна из её отраслей, топонимия, также развивается и сохраняет свою ценность в словарях и произведениях искусства. Данное небольшое исследование отражает теоретические взгляды на роль ономастики в языковой системе и её изучении.

Ключевые слова: ономастика, топонимия, ойконимия, гидронимия, космонимия, оронимия, ареальная, микротопонимия, макротопонимия, ономастическая конверсия.

Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinmas zarrachalarning ham o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bog'liq so'zlar guruhi mavjud bo'ladi. Joy nomlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik – toponimdir. Toponim yunoncha so'z bo'lib, *topos* – joy, *onoma* – nom. Demak, toponim – joy nomi⁶.

Ma'nosidan qat'iy nazar, barcha nomlar manzil vazifasini bajaradi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy funksiyasi manzil bo'lib

⁶ Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Ф.ф.ф.д. (PhD) диссер. – Бухоро, 2021. – Б.13.

xizmat qilishdir. Demak, joy nomlari bir obyektни ikkinchisidan farq qilish uchun, shu obyektning o'rnini aniq ko'rsatish uchun zarur.

Toponimlar - bir joyni ikkinchisidan farqlash uchun atab qo'yilgan nomlardir. Joy nomlarida xalqning uzoq o'tmishi, iqtisodiy-siyosiy hayoti, madaniy merosi aks etganligi bois ularni o'rganish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Toponimlar o'zida tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumotlarni o'zida jamlagan xazina manbayidir. Ba'zi bir toponimlar borki, ular ibtidoiy tuzumda paydo bo'lgan, ularni o'rganish turli soha uchun yangiliklarni yaratadi. Joy nomlarini o'rganish, ayniqsa, lingvistika uchun ham muhim ma'lumotlar beradi. Masalan, ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd etilgan geografik nomlarni ularning keyingi yuzaga kelgan shakllari va hozirgi talaffuzini qiyoslab, tilning lug'aviy tarkibida, so'zlarning asl shaklida sodir bo'lgan o'zgarishlarni bilib olishimiz mumkin.

Xalqlar, ularning tillari yoki o'simlik, hayvonlar ham yo'q bo'lib ketishi mumkin, lekin ularning nomi, shuningdek, geografik joy nomlari saqlanib qoladi. Masalan, lotin tili, dinozavr kabi. Geografik nomlar juda uzoq davr mobaynida saqlanib qolganligi bois tarix uchun katta ahamiyatga ega. Toponimning muqim yashashiga asosiy sabab shuki, so'zning toponimga aylanmasdan oldingi ma'nosi to'g'risida kishilar ko'pincha o'ylab ham o'tirmaydilar. Shunday qilib, so'z biron obyektning nomigina bo'lib qoladi. Toponimlarda turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslarning ismlari, ko'chib yurgan urug' nomlari aks etgan bo'ladi.

Toponimlarning asosiy vazifalaridan biri bir obyektни ikkinchisidan farqlash va uning o'rnini aniq ko'rsatishdir. Shuningdek, har bir geografik nom muayyan ma'noga ega bo'lib, o'zida ko'plab ma'nolarni tashiydi. Ammo ba'zi joy nomlarining ma'nosi bugungi kunda jumboqligicha qolmoqda. Geografik nomlarga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turi millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini bilib olish mumkin. Geografik nomlar juda qadim zamonlarda ibtidoiy tuzum davrida paydo bo'la boshlagan. Joy nomlari ming yillar davomida to'plana borgan va hozirgi vaqtda Yer sharida behisob toponimlar bor. Geografik nomlar dunyoga keladi, yashaydi, ma'lum bir davr davomida ko'pincha shakli hamda talaffuzi o'zgaradi

Toponimlar turli davrlarning mahsulidir. Xalqning tili bilan, tarixi bilan chambarchas bog'liq⁷.

O'rxun-Enasoy bitik toshlarida, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va boshqa yozma manbalarda ham joy nomlari qayd etilgan. Toponimlarni o'rganish bo'yicha nafaqat jahonda, balki yurtimizda ham anchagina ishlar amalga oshirilgan. Chunki geografik nomlar qadimdan olimlar e'tiborini tortib kelgan.

Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinmas zarrachalarning ham o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga

⁷ Qorayev S. Toponimika. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. –B.14.

ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bog‘liq so‘zlar guruhi mavjud bo‘ladi. Joy nomlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik – toponimdir. Toponim yunoncha so‘z bo‘lib, *topos* – joy, *onoma* – nom. Demak, toponim – joy nomi⁸.

Ma’nosidan qat’iy nazar, barcha nomlar manzil vazifasini bajaradi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy funksiyasi manzil bo‘lib xizmat qilishdir. Demak, joy nomlari bir obyektни ikkinchisidan farq qilish uchun, shu obyektning o‘rnini aniq ko‘rsatish uchun zarur.

Prof. S.Qorayev ta’kidlashicha, geografik nomlar manzilgina emas, ko‘pdan ko‘p axborot, tarixiy, geografik, lingvistik ma’lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma’nosiz nom bo‘lmaydi. Lekin ko‘pgina joy nomlarining ma’nosi yo‘qolgan, aniqrog‘i hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan.

Geografik nomlar – xaritaning muhim elementidir. Joy nomlari obyektlarining manzillari bo‘lishi bilan birga hududning tabiati, tabiiy boyliklari va boshqa geografik xususiyatlari haqida ma’lumot bera oladi.

Geografik nomlar, avvalo, so‘zdir. Shuning uchun ular so‘z kabi dunyoga keladi, yashaydi, ma’lum bir davr davomida mavjud bo‘ladi, iste’moldan chiqadi va nihoyat nom-nishonsiz yo‘qoladi. Toponimlarning umri turlicha. Ba’zi bir toponimlar bir necha yil yoki bir necha o‘n yil yashasa, boshqa bir geografik nomlar asrlar bo‘yi ham tildan tilga o‘taveradi. Samarqand yunon tarixchilari asarida Marokanda, so‘g‘d yozuvlarida Smarakans, Toshkent esa dastlab Choch, keyinchalik Shosh, X asrdan e’tiboran Toshkent shaklida qayd qilingan.

Toponimlar turli davrlarning va turli tillarning mahsulidir. Bu xalqning tili bilan tarixi chambarchas bog‘liqligidan darak beradi.

Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon kabilarning ilmiy izlanishlari toponimikaning fan sifatida shakllanishida alohida e’tirofga loyiq⁹.

H.A.Smitning tadqiqotida toponimlarning nazariy asoslari, A.L.Dauzat ishida fransuz toponimlarining ma’no guruhlari yoritilgan. G.J.Kopleyning ishida joylarning umumiy va mashhur nomlari bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan bo‘lsa, G.V.Lemon ingliz tilidagi toponimlarning etimologiyasiga oid qarashlarini bayon etgan.

Toponim tushunchasiga ta’rif bergan mashhur rus tilshunoslari N.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalar “toponimlar *Yer* planetasidan tashqari har qanday geografik nomlarni ifoda etuvchi barcha so‘zlar uchun umumlashtiruvchi atamadir”¹⁰, – deya qayd etishgan.

⁸ Adizova N.B. Ko‘rsatilgan manba. – B.13.

⁹ Smith, A. H. English Place-Names Elements. – Cambridge: 1956. – 163 p.; Алберт Даузат. La Toponymie française. – Paris: Bibliothèque scientifique, Payot, 1960, Réimpression 1971 – 168 p.; Copley, G. J. Names and Places with a short dictionary of common or wellknown place-names. – London: Phoenix House Ltd., 1963. – 226 p.; Лемон Г.Б. English Etymology. – G.: Robinson, 1783. – 693 c.

¹⁰ Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания. – 1969. – № 4. – С.141.

V.A.Nikonov tomonidan “toponimika geografik nomlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi; til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya sohalari bilan kesishadigan; tarix, geografiya, etnografiya bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lgan tilshunoslikning alohida bo‘limi”¹¹ ekanligi bayon qilingan.

D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar toponimikani “leksikologiyaning geografik nomlarni o‘rganuvchi bo‘limi; biror hududning geografik nomlari jamlanmasi”¹², deb ta’riflagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адизова Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фанл. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2021. – Б.23.
2. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Т.: Фан, 2006. – Б.15.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 515
4. Муллазоде С.М. Топонимия северных районов Азербайджана. – Баку: Маариф, 1979. – С.137-138.
5. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – С.49.
6. Смолицкая Г.П. Топонимический ареал и вопросы реконструкции лексической системы языка (на славянском материале) // Вопросы языкознания. – 1978. – № 4. – С.115.

¹¹ Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С.164.

¹² Розентал Д.Э., Теленкова М.А. Справочник лингвистических терминов. – М., 1972. – С.447.